

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-7

USMON AZIM IJODIDA HAJV VA IJTIMOY LIRIKANING UYG'UNLIK TABIATI

*Firuz Buriyeva*

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,  
Samarqand*

[feruzaburiyeva79@mail.ru](mailto:feruzaburiyeva79@mail.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada hajvning lirika shakli va ifoda vositasi sifatidagi tabiati, uning mumtoz adabiyotda asosan ijtimoiy mavzular uchun tasvir usuliga aylanganligi hamda davr bilan bog'liq tadqiqiy takomili masalalariga to'xtalinadi. Xususan, adabiyotshunos Abdurashid Abdug'afurov tadqiqotlarida Alisher Navoiy ijodidan boshlanganligi aytilgan satiraning hozirgi o'zbek shoirlari ijodida zuhur topishi shoir Usmon Azim ijodiga mansub "Xullasi kalom", "Bular – mollar", "Sizga boladay qarayman", "Yur", "Dunyoni bo'lib olish", "Bir pastkashlikni ko'rganda yozgan she'rim", "Eramizdan avval qaysidir bir asrda boshlangan voqea haqida ikki she'r", "Birlashgan millatlar tashkilotiga maktub" kabi bir qator she'rlari tahlillari orqali ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy hayot, individual uslub, adabiy an'ana va novatorlik, hajv, invekteva, allegoriya, kinoya, falsafiylik, kontrast.

### СИНКРЕТИЧНОСТЬ ЮМОРА И СОЦИАЛЬНОЙ ЛИРИКИ В ТВОРЧЕСТВЕ УСМАНА АЗИМА

*Фируза Буриева, Филологические науки  
доктор философии (PhD),  
Узбекско-Финляндский педагогический  
институт, Самарканд  
[feruzaburiyeva79@mail.ru](mailto:feruzaburiyeva79@mail.ru)*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы о характере комического как лирической формы и средства выражения, о том, что он стал в классической литературе в основном способом изображения социальных тем, а также о его исследовательской доработке, связанной с эпохой. В частности, в исследованиях литературоведа Абдурашида абдугафурова говорится, что сатира, начавшаяся с Алишера Навои, нашла свое отражение в творчестве современных узбекских поэтов, таких как "Хулласы Калам", "Булар – моллар", "я смотрю на тебя как на ребенка", "юр", "мир", "поэзия, написанная, когда я увидел унижение", "от нашей эры два стихотворения о событии, начавшемся в каком-то столетии ранее", научно-теоретически обосновывается анализом ряда его стихотворений, таких как "письмо в Организацию Объединенных Наций".

**Ключевые слова:** общественная жизнь, индивидуальный стиль, литературная традиция и новаторство, комикс, инвектива, аллегория, ирония, философия, контраст.

### THE SYNCRETIC NATURE OF PILGRIMAGE AND SOCIAL LYRICISM IN THE WORK OF USMAN AZIM

*Firuz Buriyeva, philological Sciences  
doctor of Philosophy (PhD),  
Uzbekistan-Finnish pedagogical Institute, Samarkand  
[feruzaburiyeva79@mail.ru](mailto:feruzaburiyeva79@mail.ru)*

**Annotation.** In this article, the nature of hajv as a form of lyricism and a means of expression, its transformation into an image method for mainly social topics in classical literature, as well as the issues of educational evolution related to the period are addressed. In particular, literary scholar Abdurashid Abdugafurov says that the discovery of satire in the work of current Uzbek Poets, which began with the work of Alisher Navoi in his studies, is scientifically theoretical through a number of poems, such as “Khullasi kalom”, “these are the goods”, “I look at you like a child”, “Yur”, “dividing the world”, “my poem written when I saw a is based on.

**Keywords:** social life, individual style, literary tradition and innovation, hajv, invekteva, allegory, irony, philosophy, contrast.

Bilamizki, Usmon Azim adabiyot maydoniga XX asrning 70-yillarida kirib kelib, bugungi kunga qadar eng baland pardalarda qalam tebratib kelayotgan adabiyot vakilidir. Shoirning bugunga qadar yaratgan ijodiy merosi nihoyatda keng qamrovli va ko‘p qirrali bo‘lib, ular adabiy tur va janrlar, mavzu doirasi, ifoda xususiyati kabu belgilari bilan keng ko‘lamli tadqiqot obyekti bo‘la oladi. Shoir badiiy olamiga kirib borar ekanmiz, ijodkor individual uslubida falsafiy-intellektual, lirika, ijtimoiy va falsafiylik, shuningdek hajv xususiyatlarining mukammal zuhur topganiga guvoh bo‘lamiz.

Darhaqiqat, shoir ijodida shoir ijodida kulgining yetakchi vosita va tasvir usuli ekanligini ta’kidlamog lozim. Zero, ijodkor o‘zining “Adibning umri”, “Kunduzsiz kechalar”, “Bozor”, “G‘aroyib ajdaho”, “Baxt qushi”, “Sinfdosh yoki kuyovlikka nomzod”, “O‘tkan zamon hangomalari” kabi drama va komediyalari, shuningdek, “So‘ngso‘zlar” xotiranomasidagi ko‘pgina voqealarlar tasvirida satirik va yumoristik kulgi orqali ta’sirchan badiiy lavhalar va xarakterlar yaratish, asar pafosini yuzaga keltirishda mahoratini namoyish eta olgan adibdir. Shuningdek, ijodkorning hajvchilikdagi tajribalarini uning she’riy asarlari orqali ham korishimiz mumkin. Shoirning turli to‘plamlaridan o‘rin olgan hajviy mazmundagi she’rlari bilan tanishar ekanmiz, ularda ijtimoiylik, falsafiy mazmundorlikning sinkretik ifodalanganligini ilg‘aymiz. Shoirning turli to‘plamlaridan o‘rin olgan “Xullasi kalom”[3.352], “Bular – mollar”[3.419], “Sizga boladay qarayman”[3.421-422], “Yur”[3.422], “Dunyoni bo‘lib olish”[3.468], “Bir pastkashlikni ko‘rganda yozgan she’rim”[4.201], “Eramizdan avval qaysidir bir asrda boshlangan voqea haqida ikki she’r”[5.269-270], “Birlashgan millatlar tashkilotiga maktub”[5.430], “Paxtaga qasida”[6.24] “Ertakka iqtibos”[7.149], “U sotildi”[8.57], “Chumoli haqida nutq”[9.17], “Uning qo‘llari qaltirab pul sanaydi”[10.195], “Turmush suratlari”[11.406] kabi she’rlarida eng asosiy mavzularning inson huquqining daxlsizligi, shaxs qadr-qimmatining jamiyat va tuzumning manfaatlaridan ustunligi, shuningdek, jamiyatga ziyon keltiruvchi tekinxo‘rlik, tashimachilik, laganbardorlik, ikkiyuzlamachilik kabi xilma-xil illatlarni fosh etishga bag‘ishlanganligini bilan e’tiborlidir. Shoir asarlarida mustabid tuzum, davrning dolzarb muammolarini yorituvchi mavzular esa ochiq-oshkor namoyon bo‘lmasa-da, ijodkor hajvi bu kabi tuzumda shakllangan jamiyat va uning a‘zolari qiyofalari aks ettiruvchi, qulikka targ‘ib qilingan siyosatning asl yuzini ko‘rsatuvchi ayrim she’rlarning yaratilishida jahon nasri va she’riyatidagi ramziy ma’noli asarlarning ham ta’siri bo‘lganligini sezish qiyin emas. Chunonchi, shoir ijodiga mansub bir-biriga mavzu va kinoyaviy ifoda vositalari jihatidan yaqin bo‘lgan “U sotildi”, “Bular-mollar” kabi she’rlarining yuzaga kelishida jahon nasri durdonalaridan biri Jorj Oruelning “Molxona” asariga ta’siri bo‘lgan degan mulohazalar uyg‘otadi. Ular orasidagi yakranglik faqat nomlanishda emas – zero, asl nomi “Animal Farm: A Fairy Story”[13] bo‘lgan qissaning rus tiliga “Скотный двор», o‘zbek tiliga “Hayvonlar xo‘jaligi haqida ajoyib qissa”[14] va “Molxona” kabi nomlar bilan tarjima qilingan – mazkur asardagi ramziy obrazlar va g‘oyaviy mazmunidagi umumiylik, hajv

tig'ining mustabid tuzum va uning inson qadr-qimmatini, erkini paymol qiluvchi siyosatining fosh qilinganiga qaratilganligi kishida ular haqida qiyosiy tasavvur uyg'otadi.

Usmon Azim hajviy-ijtimoiy she'rlarda faqat jamiyat muammolarining emas, balki ayrim shaxslardagi xushomadgo'ylik, xudbinlik, pastkashlik, manmanlik kabi illatlarning inson qadr-qimmatini zavol toptiruvchi asl qiyofalari ko'rsatib beriladi. Jumladan, shoirning "U sotildi" she'rida bir kinoyaviy obraz timsolida birvarakayiga odamlardagi bir nechta illatning fosh etilganiga guvoh bo'lamiz. Mazkur asarda she'riy kompozitsion tuzilishining o'ziga xosligi, shaklning mavzu bilan chambarchas aloqadorlikda bir necha uzvlarga bo'linganligida aks etadi:

**Muqaddima (mavzu:shaxsiy manfaatdorlik, pastkashlik):**

U sotildi.

Egasi paydo bo'ldi uning.

Mol kabi faqat egasining

Aytganini qiladi:

Faqat qorni to'ysa bas –

og'ilxonaning to'ri uniki

**Mulohaza (mavzu:xushomadgo'ylik):**

Dumi borga o'xshaydi

(egasining oldida likillashini eslang)

**Yana mulohaza(mavzu:xudbinlik):**

Tuyog'i borga o'xshaydi

(bechoralarni bosib o'tganini ko'rgansiz)

She'rning keyingi qismi esa yuqorida keltirilgan barcha mulohazalar uchun umumiy **xulosa** sifatida namoyon bo'ladi:

Undan qo'rqmang.

Ammo

Ehtiyot bo'ling:

Mol bo'lgandan buyon

shoxi ham chiqqandir.

Ehtiyot bo'ling...[8.57]

Mavzuga aloqadorligi bois shu o'rinda she'riy kompozitsiya haqidagi ayrim fikrlarga to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Bilamizki, adabiyotshunoslikda she'riy kompozitsiya haqida bildirilgan rang-barang qarashlar mavjud bo'lib, bu esa lirik asarlar uchun umumiy kompozitsion talabning qat'iy mavjud emasligidandir. Xususan, zamonaviy shoirlar ijodida lirikada erkin ifoda tarziga bo'lgan intilishning ustuvorligi tufayli she'riy kompozitsiya, lirik sujet va qahramon, shuningdek, janr-shakllarga oid tamoyillarning nisbiyligi, bu boradagi qarashlarning yakrang emasligi, mudom o'zgarib borganligi ayon bo'ladi. Masalan, adabiyotshunos va olim Jamol Kamolning "She'r san'ati" risolasida lirik kompozitsiyaning an'anaviy va novatorona tabiatini belgilovchi ayrim fikrlar diqqatimizni tortadi: "O'zbek klassik she'riyatida "kompozitsiya" alohida istiloh sifatida qo'llanilmagan bo'lsa-da, bu tushuncha mavjud bo'lgan va shoirlar uning qat'iy talablari asosida qalam tebratganlar. Bu o'rinda masnaviy, ruboiy, g'azal, muxammas, musaddas, qit'a kabi klassik she'riy shakllarning o'ziga xos kompozitsiyasini esga olish kifoya".[1.165] Ko'rinadiki, mumtoz

she'riy asarlarga kompozitsiya tushunchasi asosan janrlarning shakliy tuzilishlariga nisbatan qo'llanilib kelingan. Zamonaviy she'riyatda kompozitsiya tushunchasiga nisbatan qarashlarda esa N. Bualo, V.G. Belinskiy, L.Temofeev, N.Vengrov[1.173] kabi G'arb nazariyotchi olimlarining qarashlariga tayanilgan holda she'rning mazmun tomoniga diqqat qaratilgani ma'lum bo'ladi: "Har bir lirik asarni uch qismga bo'lish mumkin. Birinchi qismda bosh fikr, bosh g'oya ifodalandi, ikkinchi qismda yordamchi g'oyalar ila mavzu ochilar, uchinchi qismda fikr va tuyg'ular doirasi bekiladi. Buni xotima deb atalar, xotimada fikrlar tiyg'ular aniqlanib, o'tkirlanib, bir to'kiska to'planadi".[2.194] Albatta, ushbu fikrlar qayd etilgan davrdan bugunga qadar she'riyat yanada takomillashdi va uning o'rganilishiga doir adabiy-estetik qarashlar ham turfalandi, ma'lum darajada o'zgardi. Ammo zamonaviy she'rlarda kompozitsiyaning asar mazmunidan kelib chiqib belgilanishi esa tobora barqarorlashib, tamoyilga aylangani bugungi adabiyotshunoslikda ham zuhur topgan. Bu borada D.Quronovning ushbu fikrlarini keltirib o'tish o'rinli: "Darhaqiqat, lirik asarda voqealar tizimi yo'q, biroq bir-biriga bog'liq o'y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji mavjudki, ushbu harakatning ham boshlanishi, rivojlanishi va yakuni bor. Aslida, shuning o'zi «lirik sujet» atamasini qo'llashga asos, biroq, yana qaytaramiz, chalkashliklardan qochish uchun uning o'rniga *tematik kompozitsiya* atamasi qo'llanadi. Albatta, tematik kompozitsiyada syujet unsurlari (ekspozitsiya, tugun va b.)ni izlash o'rinsiz, bunda o'sha uchta asosiy nuqta: *boshlanma*, *o'y-fikr* va *his-kechinmalar rivoji* hamda *yakun mavjud*".[12.44] Xususan, Usmon Azimning o'y-fikr yetakchi xususiyat bo'lgan hajviy, falsafiy-intellektual lirikasida kompozitsiyaning tezis, antitezis va sintezdan[1.166], D.Quronov ta'biricha, *boshlanma*, *o'y-fikr* va *kechinmalar rivoji* hamda *yakundan* iborat qismlardan iborat bo'lishi haqidagi qonuniyatga asoslanilgani yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo ko'pgina she'rlarda *boshlanma tezis*, ya'ni *fikr* sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, quyidagi she'rda ham:

**Fikr:**

Pastkashlik – naqadar bahodir, o'ktam!

Pastkashlik – naqadar to'g'ri so'z, kamtar!

She'rning keyingi misralaridan she'rning *sintez, mulohaza* qismiga o'tiladi:

Ezgulikka o'xshar haqiqatan ham,

**Xulosa:**

Qo'rqinchli joyi shu –

Juda ham o'xshar.[4.201]

Guvohi bo'lganidek, she'rda shoirning kuzatuvchanligi o'laroq paydo bo'lgan poetik topilmasi, ya'ni pastkashlikning ezgulikka juda ham o'xshashligi kontrastlikda qiyoslanib, odamlardagi illatlardan birining fosh etuvchi obrazi yaratilgan, qo'llangan kinoyaviy so'zlar esa zaharxanda; nafrat va jirkanish tuyg'usini hajv orqali emotsional tarzda ifoda etadi.

Usmon Azim hajviy she'rlaridagi o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ularning deyarli barchasi hayot va insoniyat haqidagi falsafiy xulosalarga ega. Faqat ushbu fikrlarda falsafiy lirikaga xos o'ychanlik, didaktizm o'rnini barqaror tanqidiy qarashlar egallagani, qo'yilgan muammolarning ham qat'iy yechimlari ko'rsatilgani ularning hajviy tabiatini namoyish etib turadi.

Shoir hajviy she'rlari faqat jamiyat qusurlarini fosh etishga qaratilmagan, ular orasida odamlardagi laganbardorlik, pastkashlik, nodonlik, mutelik singari qator illatlarni fosh etuvchi xarakterli she'rlar ham uchraydi. Bu jihatdan, shoirning yuqorida keltirilgan "Bir pastkashni minbarda ko'rganimda yozgan she'rim" deb nomlangan hajviy xarakterli she'ri diqqatni tortadi. She'r garchand miniatyur tuzilishga ega bo'lsa-da, unda ijodkorning goyaviy maqsadi to'la namoyon bo'lgan. Buning uchun muallif she'r uchun eng mos shakl va vositalarni tanlaydi. Ko'rib

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-7

o'tganimizdek, bular avvalo she'ning sarlavhasi, mazmunan *fikr, mulohaza* va *hukm* tarzida ifodalangan kompozitsion uzvlardan iboratligida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, Usmon Azimning hajviy-ijtimoiy yo'nalishdagi she'rlarining barchasida boshlanma yoki fikr rivoji qismlari bo'lmasa-da, ammo ular xulosaviy yakunga egaligi bilan xarakterli. Zero, bu kabi she'rlar shoirning kompozitsion yakunda berilgan ushbu xulasalar tufayli yaralganini ham sezish qiyin emas.

Shoir hajviy asarlarida mumtoz va zamonaviy hajvchilikda keng qo'llanilib kelingan turli badiiy usul va vositalardan o'rni bilan foydalaniladi. Xususan, ijodkorning hajviyotida kontrastning poetik yangilanganining guvohi bo'lamiz. Agar folklor asarlari sirasidagi "Egri bilan to'g'ri", "Zumrad va Qimmat" "Yaxshilik va yomonlik" singari ertaklar, shuningdek, mumtoz adibiyotda "Muqbil bilan Mudbir" (Navoiy), Gulxaniyning "Toshbaqa bilan chayon" (Gulxaniy) kabi satirik hikoyatlarda kontrastning asosiy badiiy vositasi bo'lganligini esga olsak, shoir haviyotining bu yorig'dagi adabiy an'analar bilan tutashganligini, ular bilan bog'liq tamoyillarga tayanganligini ayta olamiz. Shuningdek, ijodkorning hajviy, falsafiy-intellektual asarlarining shakli va ifoda tarzi borasida izlanuvchanligi ham qabariq xususiyatlardandir. Jumladan, shoir ijodidagi "Dunyoni bo'lib olish" she'rida an'anaviylik va shakl jihatdan noodatiylikning uyg'ukda ifodasi namoyon bo'lgan. Yuqoridagi tarzda sarlavhalangan she'ning ikkita ustunli tarzda shakllangani, birinchi ustunda eguluk tarafidagi tushunchalar, ikkinchi ustunda esa yovuzlik yomonlik tarafidagi tushunchalar o'zaro zidlikda izchil keltiriladi:

Kambag'al bizniki.	Boylar sizniki
Haqiqat bizniki.	Yolg'on sizniki.
Qayg'ular bizdandir.	Shodliklar sizgan.
Tashvish bizga tobe.	Beg'amlik sizdan.
Yamoq biznikidir.	Butun sizniki.
Ozodlik bizdandir.	Qafas sizniki.
Ko'ngil bizning podshoh.	Qorin sizniki.
Bizning uy xaroba.	Saroy sizniki.
Manglay ter bizniki	Harom sizniki.
Bizning haqning qulimiz.	Dunyo sizniki

Shu tarzda misralalar aro *bizga kambag'al, haqiqat, qayg'ular, tashvish, yamoq, ozodlik, ko'ngil, xaroba uy, manglay teri, Haqqa qullik* va *sizga esa boylar, yolg'on, shodliklar, beg'amlik, butun, qafas, qorin, saroy, harom, dunyo* birma-bir taqsimlanadi. She'ning so'nggi misralari xulosaviydir:

Endi bu yog'ini o'zi bo'lindi:

Olloh biznikidir. Sayton sizniki. . [3.468]

Ko'rib o'tganimizdek, mazkur she'r shaklan ham, mazmun jihatdan ham shoirning badiiy izlanishlari hosilasi bo'lib, undagi kontrastlkn yuzaga keltirgan so'zlarning deyarli barchasi konsept sifatida namoyon bo'lgan. Bu esa she'ning falsafiy umumlashmalik qamrovini g'oyatda kengaytirib, hayotning o'tkinchiligi va o'limning muqarrarligi, dunyoning omonatligi va oxiratning barhaqligi

haqidagi ma'rifiy-didaktik, diniy-tasavvufiy, ijtimoiy-falsafiy hamda psixologik qarashlarni muxtasar va mufassil holda ifoda etadi. Shuningdek, she'rning ikkinchi ustuni ifodalangan tasvirlar orqali dunyoning "zo'r"lari mumtoz shoira Anbar otin ta'biri bilan aytganda "Xudoning ne'matini bo'lib olg'onlar" ning zamonaviy satirik obrazini ham yaratilganini ham ko'ramiz.

Xulosa shuki, o'zbek adabiyotida mashhur turk yozuvchisi Aziz Nesinning ta'biri bilan aytganda, "adabiyot turlarining ichida eng ta'sirchani, eng ommabopi" bo'lgan hajviyotning har bir hajvchi uslubida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Xususan, Usmon Azim hajvi kulgisiz, ammo fosh qiluvchi, hujumkor, kinoyal, shuningdek, qat'iy tanqidiy xarakterli ekanligi ko'zga tashlanadi. Yuqorida ham aytib o'tganimizdek, shoirning bu kabi she'rlari lirikaning uch yondosh, ifoda va mazmunda nisbatan bir-biriga yaqin turlari: hajviy, ijtimoiy, falsafiy lirikaning sinkretiklikda namoyon bo'lishi bilan o'ziga xos.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Жамол Камол. Шеър санъати. Сайланма. Олти жилдлик. IV жилд. – Т.: "Янги аср авлоди", 2018. – 448 б.
2. Ойбек. Асарлар. Ўн томлик. IX том. – Тошкент, 1974. – Б.194.
3. Усмон Азим. Танланган асарлар. Назм, наср, драматургия. – Т., "Шарқ", 2021. – 704 б.
4. Усмон Азим. Танланган асарлар. 4-жилд. – Т., Фафур Гулом номидаги нашриёт, 2022. – 464 б.
5. Усмон Азим. Танланган асарлар. 5-жилд. – Т., Фафур Гулом номидаги нашриёт, 2022. – 488 б.
6. Усмон Азим. Уйғониш азоби. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992.– 320 б.
7. Усмон Азим. Фонус. –Тошкент: Шарқ, 2010. – 160 б.
8. Усмон Азим. Жимлик.– Тошкент, Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 320 б.
9. Усмон Азим. Сурат парчалари. Шеърлар ва дoston. – Тошкент, "Ёш гвардия", 1986. – 104 б.
10. Усмон Азим. Юрак. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – 328 б.
11. Усмон Азим. Сайланма. –Тошкент: Шарқ, 1995. – 432 б.
12. Куронов Д. Назарий қайдлар. – Тошкент, "Академнashr", 2018. – 128 б.
13. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Molxona\\_\(novella\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Molxona_(novella)). Bu sahifa oxirgi marta 2025-yil 23-iyun, 02:50 da tahrir qilingan.
14. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/jorj-oruell-hayvonlar-xojaligi-haqida-garoyib-qissa.html>. 25.06.2021.